

Neologizmlarning tilshunoslik nuqtayi nazardan o‘rganilishi hamda ularning korpus lingvistikasidagi talqini

Annotatsiya. Neologizmlarni o‘rganish tilshunoslikning zamonaviy va qiziqarli sohasi sifatida yangi so‘zlar va iboralarni, yangi tushunchalar, texnologiyalar yoki hodisalarini ifodalaydi. Maqolada tilning rivojlanishi va o‘zgarishlarini tushunishda mahalliy OAV nashrlariga murojaat qilingan. Bundan tashqari tilshunos olimlarning neologizmlar borasida qilgan tadqiqot ishlariga misollar keltirib o‘tilgan. Bu orqali yangi so‘zlarning nazariy xususiyatlariga urg‘u berilgan. Ularni o‘rganishda turli neologizmlar misolida statistik tahlillar keltirilgan. “Kun.uz” internet nashridan yig‘ib olingan 300dan ortiq so‘zlarni AntConc ilovasi orqali ularning lingvistik jihatdan xususiyatalari tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar. Neologizmlar, Kun.uz, morfologik xususiyatlar, OAV, Korpus, neologizm.uz, statistika, matn, kontekst, AntConc ilovasi.

Kirish. Yangi so‘zlarni ishlatish va ularni matn aspektida qo‘llanishida namuna manba bo‘lib xizmat qiladigan ommabop internet nashrlaridan foydalanib, neologizmlarning bazasini shakllantirish kompyuter lingvistikasining muhim bosqichlarini tashkil qiladi. Neologizmlarni tezkor topishda amaliy yordam sifatida OAVning internet nashrlari ahamiyatga ega. Ularni lingvistik tahlil uchun qulay manba sifatida baholash mumkin. Qolaversa, neologizmlarning sohaviy klassifikatsiyasini ishlab chiqishda, yangi so‘zlar lug‘atini yaratishda, ularning nazariy asoslarini ishlab chiqishda hamda kompyuter lingvistikasi yo‘nalishida tadqiqotlar yaratishda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qiladi. Terminologik ma’lumotlar bazasini yaratish orqali korpusga asoslangan tahlilning nazariy asoslari belgilab beriladi.

Asosiy qism. Jahon tilshunosligida neologizmlar masalasi atroflicha o‘rganilgan. Tilga yangi so‘zlarni kirib kelishi, ularning vazifasi borasida

tadqiqotlar olib borilgan. Yangi so‘zlarning lingvistik o‘ziga xosliklarini tahlil qilishda tilshunoslikning turli nazariyalariga murojaat qilingan. Jahon tilshunosligida D.Kerremans¹ o‘zining “A Web of New Words. A Corpus-Based Study of the Conventionalization Process of English Neologisms” (Yangi so‘zlar tarmog‘i. Ingliz neologizmlarini konvensiyalashtirish jarayonini korpus asosida o‘rganish) nomli kitobida neologizmlarning ingliz leksikoniga qay holatlarda va nima uchun kiritilmaganlik gipotezalarini keltirib o‘tadi. Ingliz tilidagi neologizmlarni keng ko‘lamli foydalanishga asoslanganligini tadqiq qiladi.

M.Elisa² ma’lumotlar bazasidagi yangi so‘zlarning miqdoriy tahlilini olib boradi. Bir marta foydalanadigan so‘zlar (nonce words)ni aralash neologizmlardan ajratadi hamda bu holat leksiklashtirish jarayoniga qanday hissa qo‘sishi mumkinligini asoslagan. Uning fikriga ko‘ra neologizmlar tildagi yangiliklarini ko‘rib chiqdi. Ular nisbatan mustaqil bo‘lishdan tashqari kontekstda neologizm xususiyatida namoyon bo‘ladi, leksiklashadi, ya’ni jamiyat tilida tarqalgan va o‘rnashgan, leksikalashgan hamda institutlashgan norma sifatida qabul qilinadi.

Tadqiqotchi M.A.Karnedi³ o‘zining “The translation of neologisms: Challenges for the creation of new terms in Indonesian using a corpus-based approach” (Neologizmlarning tarjimasi: korpusga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda indonez tilida yangi atamalarni yaratish muammolari) nomli tadqiqotida korpusga asoslangan yondashuvdan foydalangan holda yangi so‘zlar va atamalarni yaratish

¹ Daphné Kerremans. A Web of New Words. A Corpus-Based Study of the Conventionalization Process of English Neologisms. English and American Studies in German. October 24, 2016.

<https://doi.org/10.1515/east-2016-0007>

² Mattiello Elisa. A corpus-based analysis of new English blends. <https://doi.org/10.4000/lexis.3660>

³ Karnedi M.A. The Translation of Neologisms: Challenges for the Creation of New Terms in Indonesian Using a Corpus-based Approach. International Journal of Scientific & Engineering Research Vol: 3, Iss; 5, May-2012 / <http://www.ijser.org>

hamda tarjima qilish jarayonida duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklarga to‘xtaladi.

John Simpsonning⁴ o‘rganishicha, tilshunoslar neologizmlarning lug‘ati yangilanganda nafaqat yangi so‘z sifatida aniqlanishi, balki ularning o‘zgarish jarayoniga a’lovida e’tibor qaratish lozimgini qayd etishadi. Bundan tashqari N.Vaxniskaya⁵ va boshqa rus olimlari neologizmlarning lingvistik tadqiqotlarini olib borganlar.

O‘zbek tilshunoslida yangi so‘zlarni keng tahliliga bag‘ishlangan alohida ilmiy ish tadqiq qilinmagan. Yangi so‘zlar xususida ilmiy-nazariy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Shunga qaramay neologizmlarning lingvistik tahliliga bag‘ishlangan kichik tadqiqotlar olib borilgan. Bir qator tilshunoslar neologizm mazmunini o‘zbek tilshunosligi doirasida yoritishga harakat qilganlar. Xusan, S.Rzayeva tadqiqot ishida⁶ korpus tarkibidagi neologizmlarni qiyosiy tadqiq qiladi. Ya’ni yangi so‘zlar tahlilida tahlilning ikki turiga tayanadi: tarjima matnini asl nusxa bilan solishtirish; o‘xhash tarkibli - parallel matnlarni funksional uslab yoki janr asosida qiyosiy tahlil qilish kabi. S.Rzayeva neologizmlarni zamonaviy tilning ajralmas qismi sifatida ta’riflaydi. U neologizmlarni leksik (yangi so‘zlar), semantik (mavjud so‘zlarning yangi ma’nolari), frazeologik (yangi iboralar) va kalka (bir tildan ikkinchi tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilingan iboralar) turlariga ajratadi. Shu bilan birga neologizmlarni tarjima qilishda duch kelinadigan asosiy qiyinchiliklardan biri sifatida ularning madaniy va kontekstual xususiyatlarini saqlab qolishida deb baholaydi. Chunki bu jarayonda ma’no yo‘qotilishi yoki o‘zgartirilishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bundan

⁴ John Simpson. 2007. Neologism: The long view. Dictionaries, 28:146–148.

⁵ Вахницкая Н., Роль Заемствования в Создании Неологизмов Современного Немецкого Языка (На Материале Неологизмов 90-х Годов ХХ Века) Автореф. дисс. М. -2013

⁶ Рзаева С.Особенности перевода неологизмов с английского языка на русский (на материале онлайн-газет и социальных сетей). Автореф. дисс.канд.фил.н. Мытищи – 2021.

tashqari Sh.Irgasheva⁷ Ingliz tilida internet diskursidagi neologizmlar faoliyatining semantik xususiyatlarini tahlilga tortgan. Neologizmlarning shakllanish usullarini hisobga olgan holda fonologik, semantik, o‘zlashtirma va sintaktik neologizmlar kabi guruhlarni farqlash hamda sintaktik neologizmlarni morfologik va frazeologik neologizmlarga ajratish mumkinligini ta’kidlaydi. Fonologik neologizmlar, semantik neologizmlar, o‘zlashtirma neologizmlar, morfologik neologizmlar, induvidual stilistik neologizmlar kabi lingvistik turlarini tavsiflaydi. Fonologik neologizmga Auf – “ajoyib, zo‘r”, Rah-rah – “keng kalta yubka”, Zizz – “qisqa uyqu” (uxlab yotgan odam chiqaradigan tovushlarga taqlid qilish), Buzz – “telefonga qo‘ng‘iroq qilish” (ish telefonining signaliga taqlid qilish) Ouch! Oh! – engil og‘riqdan yig‘lash; Oops! Voy! – odam biror narsani tushirganda yig‘lash, Bling- bling – “yaltiroq metall kalit zanjirlar, marjon, taqinchoq buyumlar”, Sis-boombah (amerikacha jargon) tomoshabinlar sporti, ayniqla, futbol (ko‘pincha maktab o‘quvchilari o‘yinchilarni qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatajigan bo‘g‘inli so‘z) kabi misollarni keltiradi. Tilshunosning ushbu maqolasidagi tahlillar korpus leksikografiyasini zamonaviy yo‘nalishlarini statistik tadqiqotlariga olib keladi.

Tadqiqotchi A.Omonov⁸ o‘zbek tilida ommalashib borayotgan yangi so‘zlarga to‘xtalib, “mental” qo‘shma so‘zi tobora ommalashayotganiga e’tibor qaratadi. U asosan arifmetika so‘zi bilan bирgalikda qo‘llanilishi xususida fikrlarini keltirib o‘tadi. Bundan tashqari ingliz tilidan kirib kelgan “trend”, “hit” kabi so‘zlarning semantik xususiyatlarini yoritishga harakat qiladi. Tilshunosning ta’kidlashicha, o‘zbek tilidagi xorijiy so‘zlarning lingvistik xususiyatlarining jihatlari ularni tematik guruhlarga

⁷ Irgasheva Sh., Ingliz tilida internet diskursidagi neologizmlar faoliyatining semantik xususiyatlari. FarDU. Ilmiy xabarlar. 1-2023.- B. 504

⁸ Omonov A. O‘zbek leksikografiyasida neologizmlarning tahlili./ So‘ngi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Vol. 7 No. 5 (2024):


bo‘lish yo‘li bilan atroficha tahlil qilinishi kerak. O‘zbek tiliga mansub ayrim xorijiy so‘zlarning lingvistik, semantik, grammatick va morfologik xususiyatlarini aniqlash orqali ularning shakllanish asoslari aniqlandi.

M.Nasirovaning⁹ ilmiy tadqiqotida esa neologizmlarning vujudga kelish omillari va ularning leksikografik talqini tahlil qilingan. Tilshunosning fikriga ko‘ra, neologizm lug‘atlarini yaratish jamiyat uchun muhim sanaladi. Leksikografiya tendensiyalarining lug‘atlarni yaratishdagi mavqeyini “karoneologizmlar” misolida tahlil qiladi.

O‘zbek tilidagi sohaviy neologizmlarni doimiy ravishda lingvistik tahlil qilish faqat korpus orqali amalga oshirilishi mumkin. Neologizmlar jamiyatning ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy omillari ta’sirida o‘zgarib boradi. Neologizmlar u yoki bu sohalarda dastlab termin sifatida u yoki bu tadqiqotchining yoki OAVda bayon etilgan yangilikni taqdim etuvchi muhbir tomonidan xalq ommasiga kirib keladi. Albatta, ushbu holat munozarali masalalarni o‘rtaga tashlaydi. Amaliy tilshunoslik sohasida, qolaversa, kompyuter lingvistikasida neologizmlarning xronologik tartibda korpusini yaratish bugungi tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Bizning tadqiqotimiz doirasida korpus tahlili asosida sohaviy neologizmlar O‘zbek tilida yuritiladigan internet nashri “Kun.uz” saytidan olingan matnlar asosida shakllantirildi:

⁹ Nosirova M., Leksikografiya tendensiyalarining neologizmlar lug‘atlarini yaratilishidagi mavqeい/
<https://mjstjournal.com/index.php/mjst/article/view/1507/3965>. Volume-4, issue-5. - 2024



Kun.uz saytining 2014 - 2024-yillar orasidagi e'lon qilingan yangiliklarini veb korpus sifatida lingvistik bazaga kiritildi va uning tokenlar statistikasi olindi:

Texnologiya			Jahon			Iqtisodiyot		
So'z	Matnda uchragan so'zlar statistikasi	Matnda takrorlan ganlik statistikasi	So'z	Nechta matnda uchraganlik statistikasi	Necha marta takrorlanganligi	So'z	Nechta matnda uchraganlik statistikasi	Necha marta takrorlanganlik statistikasi
va	9516	42209	va	26739	180106	va	7993	52762
bilan	7478	18564	bu	21676	73488	bu	6143	18909
bu	7339	15789	bilan	21438	80174	bilan	5810	17411
uchun	6615	17137	uchun	18946	65312	uchun	5249	17962
ham	5109	11296	ko'ra	16839	33889	bo'yicha	4828	11440
yangi	5033	11129	bir	15716	41321	tashkil	4477	9495
mumkin	4957	10081	deb	15163	31017	yil	4439	10347
bir	4836	9440	u	15136	40897	ko'ra	4235	6722
kompaniyasi	4832	7274	kuni	14812	30076	bir	3784	9694
ishlab	4821	12502	bo'lgan	14498	36210	o'zbekiston	3727	10095

u	4253	7708	ham	14264	52805	ham	3652	12384
ega	4073	7681	qildi	13832	24007	shu	3420	6665
esa	3970	6473	bo‘yic ha	13422	28323	bo‘lgan	3415	7089
bo‘lgan	3935	6438	uning	12995	26105	esa	3242	6583
uning	3736	5636	o‘z	11831	24225	davlat	3177	9356
ko‘ra	3600	4995	rossiy a	11184	49209	ishlab	2985	8764
kompaniy a	3381	6070	qarshi	10506	23127	tomonidan	2926	5728
o‘z	3378	5369	yil	10501	24682	amalga	2917	6083
bo‘lib	3343	4886	shu	10500	19862	yilning	2905	6633
shu	3339	4782	haqida	10262	22563	shuningdek	2880	4210
eng	3329	7128	mumk in	10080	22029	yilda	2782	6686
ma'lum	3137	3999	tomon idan	9854	17303	o‘z	2769	5192
bo‘ladi	3108	4987	qilgan	9739	16521	hamda	2706	4577
deb	3026	4113	shunin gdek	9521	14020	qildi	2700	3729
taqdim	3022	4792	prezid enti	9460	17980	o‘tgan	2659	4441
haqida	3015	4307	olib	9438	18119	joriy	2656	4778
qildi	2976	4021	esa	9374	20308	bo‘lib	2652	4157
yil	2940	4977	bo‘lib	9317	15604	eng	2614	5467
bo‘yicha	2927	4638	haqda	9066	9704	yangi	2596	4977
shuningde k	2893	3816	qilish	9029	15891	mumkin	2578	6188
tashkil	2759	4223	xabar	8780	13042	ushbu	2562	4268
ushbu	2621	3870	bosh	8655	17643	nisbatan	2527	5394
hamda	2521	3609	harbiy	8323	25284	qilish	2492	4889
yoki	2441	3925	ushbu	8290	13168	foizga	2429	6937
boshqa	2428	3305	boshq a	8258	14312	haqda	2428	2491
yilda	2392	4463	berdi	8248	10705	olib	2345	4768
qiladi	2330	3243	ular	8141	15795	boshqa	2332	4175
xabar	2318	2692	aqsh	7952	24838	dollar	2275	5443

Korpus tahlili orqali neologizmlarni analiz qilinganda ushbu birliklarning semantikasi va strukturasi lingvistik bazani shakllatirishda muhim sanaladi. Onlayn muloqot orqali va ijtimoiy tarmoqlar orqali kirib kelayotgan neologizmlarning konkordansini lingvistik jihatdan tahlil qilish uning lisoniy tabiatini o‘rganishga yordam beradi.

Neologizmlarning lingvistik bazasi <http://neologizm.uz/> saytida yaratilgan bo‘lib, uning funksional imkoniyatlari quyidagilardan iborat:


- so‘z
- taxminiy muqobili
- izohi
- so‘z turkumi
- aloqador soha



The screenshot shows a search results page for neologisms on the Neologizm.uz website. The search bar contains the query "Qidirish uchun kalitso'zni yozing...". The results table has columns: №, So'z, Taxminiy muqobili, Kelib chiqishi, So'z turkumi, Aloqador soha, and Ko'rish. The results are as follows:

№	So'z	Taxminiy muqobili	Kelib chiqishi	So'z turkumi	Aloqador soha	Ko'rish
1	Dron	Dron	Ingлиз tilidan - uchuvchisiz hujum vositasi. Drone.	Ot	Texnologiya, harbiy	
2	Selfi	Surat	Insonnning odatda qo'lli yoki selfi tayoqchasi yordamida smartfoniga olingan o'z rasmni. [Wikipedia ma'lumoti]	Ot	Texnologiya	
3	Rubrika	Belgi	Bu so'z lotin tilidan olingan: rubrika, qizil oxra yoki qizil bo'r degan ma'noni anglatadi	Ot	Kutubxona	
4	Xaker	Buzg'unchi, kiber jinoyatchi	Ingлизcha: hack — ya'ni chopish, boltalash ma'nosida.	Ot	Texnologiya	
5	Blekaut	Elektr tarmog'idan uzilish, elektr o'chishi	Blackout - inglizcha so'zdan olingan	Ot	Elektr-energiya	
6	Fishing	Jinoyat, kiberjinoyat	Inglizchadan olingan. Tarjima qilinganda "Baliq ovlash" ma'nosini anglatadi	Ot	Kompyuter	
7	Kriptovalyuta	Valyuta, elektron pul, pul	Ingлизcha: elektron naqd pul degan ma'noni anglatadi	Ot	Kiberavfsizlik	

Korpus tahlili asosida kun.uz saytidan 2014-2024 yildagi ma'lumotlar kategoriyalar bo‘yicha quyidagicha hosil bo‘ldi:



Korpusga yig'ilgan baza asosida og'zaki va yozma matnlarda uchraydigan og'zaki va yozma matnlar yig'ildi. Og'zaki muloqotda qo'llanuvchi yangi tushunchalarni so'rovnomalar orqali talabalarining fikrlaro google drive orqali tahlil qilindi. So'rovnomalar savollari quyidagicha:

https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSowWGrLhd3JAi_EMAs66666TjQoVMyTM7OOZjy8-uUDw/viewform

Neologizmlar

Neologizmlar bo'yicha so'rovnomasi

Чтобы сохранить изменения, выделите в аккаунт Google. Подробнее...

*Обязательный вопрос

I.F.Sb. (fakultet, kurs) *

Мой ответ

Yoshingiz ... *

20
 20-30
 31-40
 41-50
 55-60+

Status *

o'qituvchi
 talaba

Jinsingiz *

ayl
 erkak

https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSowWGrLhd3JAi_EMAs66666TjQoVMyTM7OOZjy8-uUDw/viewform

Neologizmlar asosan qaysi so'ziga dori deb o'yayot?

taty
 taty
 temka
 temay
 tem
 erish-chiprak

Neologizmlar lug'atiga qanday etiqiq bar?

Mail otmet

Eng faoliyeta neologizmlar nijatiyo yezing


Mail otmet

Neologizmlar jamiyatda chustochi jechy hodiari yoki salby?

jechy
 salby

Neologizmlarning nisobasi ketchi yoki chustochini qaysi surʼallarga bogʻliq (kamida 3 smt ketchi, kishi bilan 5 ta)?

Mail otmet



Yig‘ib olingan 300dan ortiq so‘zlarni AntConc ilovasi orqali ularning lingvistik jihatdan xususiyatalari tahliliga tortildi.

AntConc

Edit Settings Help

get Corpus

me: temp
s: 9098
ens: 2576198

KWIC Plot File View Cluster N-Gram Collocate Word Keyword Wordcloud

Total Hits: 24 Page Size: 100 hits 1 to 24 of 24 hits

File	Left Context	Hit	Right Context
1 1327.txt	bozorida vujudga keladigan talab va taklif asosida uzoq muddati fundamental	trend	doirasida shakllanishi prognoz qilinmoqda.
2 1330.txt	bozorida vujudga keladigan talab va taklif asosida uzoq muddati fundamental	trend	doirasida shakllanishi prognoz qilinmoqda.
3 1613.txt	bozorida vujudga keladigan talab va taklif asosida uzoq muddati fundamental	trend	doirasida shakllanishi prognoz qilinmoqda.
4 728.txt	yicha narxlarning qulay shaklenishi va real samarali almashev kursining fundamental	trend	doirasida tebranishi fondida eksport (oltinisz) hajmi 2022 yilda 20-25 foizga, 2023-2024 yill
5 6072.txt	Zamon bilan hamohanglik (XIX, XX, XXI asrlar qiyosida). Brend asri.	Trend	va tendensiyalar. 8. Vatanparvarlik. "O'zimizniki...?!?. - Demak, o'zimizniki!!! 2-qism. (
6 6260.txt	Zamon bilan hamohanglik (XIX, XX, XXI asrlar qiyosida). Brend asri.	Trend	va tendensiyalar. 8. Vatanparvarlik. "O'zimizniki...?!?. - Demak, o'zimizniki!!! 2-qism. (
7 1499.txt	yuzaga kelishi mumkin. Zero raqamli aktivlarning ommalashishi bu – nisbatan yangi	trend	va sarmoyadorlar, iste'molchilar va umuman, biznes ularni uzoq
8 4540.txt	qarz mablag'larini jalb qilish jozibadorigini pasaytirishi mumkin. Ushbu global	trend	va tashqi omillar natijasida davlat budgeti prognoclarda kuzatilishi mumkin
9 2848.txt	gy Intelligence», «Upstream», «World Nuclear News», «IntelliNews», azerbaydjanskaya <	Trend-	Aziya» kabi OAV vakillari ham bu masofalarni hamma kabi
10 7498.txt	oxirgi yillarda siqilgan gaza ishlardigan mashinalar ishlab chiqarish urfga kirmoqda. "	Trend	barcha davlatlarda rivojlanmoqda, shu jumladan, men uchun kutilmagan bir
11 2175.txt	bir-biridan uzeq qo'yish kerak. Chunki ijtimoiy masofa yangi	trend	bo'ladi. Karantindan keyin ham odamlar muayyan muddat davomida
12 4734.txt	O'zbek kiyim-kechak mahsulotlari	TREND'	da Har qanday biznes faoliyat kichik ishlab chiqarish jarayonidan
13 5641.txt	rsatkichini ijobiy yakunlashga asos bo'ldi. Biroq, mazkur holatni mustahkan	trend	deb atash uchun bir necha oy mobaynida shunday natijani
14 3770.txt	foizga qadrsizlanganini ko'rish mumkin. AQSh dollari qadrining ortishi umumiy	trend	ekanligi va bu esa rivojlantirgan davlatlarninggina zaif tarafi emasligini
15 5379.txt	bilan qator qo'shma loyihalarni amalga oshirishni rejalashtrimoqda. Bu haqda	Trend'	ga xolding vakili dushanba kuni xabarbergan. Eslatib o'tamiz,
16 3978.txt	Oreshkinning bildirishicha, chiqib ketish bilan bog'liq holat to'xtasa,	trend	ham o'zgaradi. «Agar kechagi kunga qaralsa [11 sentabr], rubl
17 4818.txt	xalos bo'lish — so'nggi vaqtlarda tez-tez tillarga tushayotgan	trend	hisoblanadi. BRICS (Braziliya, Rossiya, Hindiston, Xitoy va JARning noformal

Search Query Words Case Regex Results Set All hits Context Size 10 token(s)

trend Start Adv Search

Sort Options Sort to right Sort 1 1R Sort 2 2R Sort 3 3R Order by freq

gress 100%

Ushbu baza kun.uz saytidagi barcha kategoriyalar asosida amalga oshirildi.

Xulosa.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yangi so‘zlarning har tomonlama tahlili korpusga asoslanishi foydalanuvchiga ancha qulaylik yaratadi. Darhaqiqat, o‘rganilgan tadqiqot ishlari natijasida neologizmlarning real tahlilini olib borish bir muncha qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Chunki yangilik belgisini bildiruvchi neologizmlarni aniqlashda yakdil lingvistik xulosaga kelish qiyin. Buning sababi sifatida yangi so‘zlarning davriy xusiyati bilan bog‘liqligini keltirish mumkin. Ma’lum vaqtidan keyin neologizmlar oddiy so‘z o‘rnida foydalaniladi. Ammo kompyuter lingvistikasi doirasida neologizmlarni tahlil qilish dunyo tilshunosligida ancha samarali natija bermoqda. Xususan, Korpusga asoslangan neologizmlar tahlilining asosiylar yondashuvlari tilning affiksatsiya, so‘zlarning bir-biri bilan bo‘g‘lanishi, eskirishi kabi hodisalariga tayanishini kuzatish mumkin. Neologizmlarning korpus asosidagi tahlili semantik mexanizmlar, metaforizatsiya, metonimizatsiya, terminologiya va determinologiya kabi yangi jarayonlarni yuzaga chiqarib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

Abdurakhmonova, N. (2019). Dependency parsing based on Uzbek Corpus. In *of the International Conference on Language Technologies for All (LT4All)* (pp. 1-4).

Muxtimovna, M. N. (2023, December). OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOTIVATSIYANING TUTGAN ORNI. In *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies* (Vol. 2, No. 12, pp. 520-522).

Turdiyeva, N., & Mansurova, Z. (2023). Analysis of idiolect and idiostyle from the point of view of literary genres. *Science and innovation*, 2(C12), 170-174.

- Tahirovna, M. D. (2023). Transformation of education as the most important factor in the development of the economic society of Uzbekistan. *Journal of Pedagogical Inventions and Practices*, 17, 1-4.
- Saodat, B. (2024). MORFEM LUG ‘ATLAR KLASSIFIKATSIYASI VA TABIATI. «CONTEMPORARY TECHNOLOGIES OF COMPUTATIONAL LINGUISTICS», 2(22.04), 561-564.